

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH  
SOHASIDA XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGI**

**Rajabov Azamjon Shokir o'g'li**

**JIDU Xalqaro Huquq fakulteti**

**Magistratura 1-kurs**

**Tel: +998881956776**

**Email: [azamjonrajabov6776@gmail.com](mailto:azamjonrajabov6776@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.6809357>**

**ANNOTATSIYA**

O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda. Kalit so'zlar: xalqaro huquq, Markaziy Osiyo, shartnoma, tashkilot, norma, konsepsiya, katalizator, rezolyutsiya, assambleya.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, yangi O'zbekiston o'zining ochiqligi va jadalligi bilan ajralib turgan izchil, samarali va konstruktiv siyosat yuritmoqda. Bu esa global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz berayotgan hamda xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanayotgan hozirgi davrda olib borilayotganligi bilan ahamiyatlidir. Mamlakatimiz mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish va xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari, qo'shni mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni amalga oshiradi. Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

“Bizning bosh maqsadimiz – umumiy sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat. Buning uchun biz turli nizolarni qo'zg'aydigan va unga

ko'maklashadigan sabab va omillarga birgalikda barham bermog'imiz, umummintaqaviy ustuvor manfaatlarni inobatga olish asosida milliy rivojlanishni ta'minlamog'imiz zarur. Biz bugun taraqqiyotimizning umumiy ustuvor yo'nalishlarini anglagan holda, chegara, suvdan foydalanish, transport va savdo singari o'tkir mintaqaviy masalalarni yechish bo'yicha oqilona murosa yo'lini izlamoqdamiz."

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi.

Bugungi kunda O'zbekistonimiz va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rtasida do'stona va ahil qo'shnichilik munosabatlari, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlik, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtasidagi aloqalar rivojlantirilgan. Mamlakatimiz o'zining 34,200,304 aholisi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynab kelmoqda.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, mintaqadagi barcha davlatlar o'rtasidagi muhim bo'g'in hisoblanadi va mintaqaviy hamkorlikning asosiy katalizatori bo'lib hisoblanadi. So'nggi 3 yil mobaynida olib borilgan muloqot natijasida Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi ishonch muhiti yaratildi, do'stlik va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan munosabatlar mustahkamlanmoqda.

O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha yangi qaror imzolandi

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 14-mart kuni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga imzo chekdi.

Hujjatda aytilishicha, "huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi".

Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayotgani ham qayd etildi.

Hujjatga ko'ra O'zbekistonda Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarni tegishincha Voyaga

yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar etib qayta tashkil etiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari huzurida prokuratura, ichki ishlar va O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining tajribali xodimlaridan iborat doimiy faoliyat yurituvchi idoralararo tezkor-tergov guruhlari tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi quyidagi komissiyalar bo'yicha yagona muvofiqlashtiruvchi organ etib belgilandi:

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi;

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi;

Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi.

Shuningdek Haftaning har payshanba kuni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» etib belgilandi.

2020 - yilning 15-17 dekabr kunlari Toshkent shahrida Buyuk Britaniya Jinoyatchilikka qarshi kurashish Milliy agentligining (National crime agency NCA) O'zbekistondagi Markaziy Osiyo respublikalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchisi tomonidan tashkil etilgan dasturi doirasida, kiber jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha ikkinchi bosqich onlayn trening bo'lib o'tdi. Unda Ichki ishlar vazirligi ekspert-kriminalistika bosh markazidan Sh.Sh.Shomaxsudov, B.A.Sulaymonov X.M.Gadjiev, A.S.Kaxramonov, A.I.Xudoyberdievlar faol ishtirok etdilar.

O'quv kursi ochilishida Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi elchisi Timoti Torlot tabrik nutqi bilan so'zga chiqib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bir qatorda, inson huquqlariga jiddiy zarar etkazishi mumkin bo'lgan kiber-fazoda kiberxavfsizlikni ta'minlash juda muhim ahamiyatga egaligi to'g'risida so'zladi.

Prezident tomonidan 2.04.2021 yildagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5050-son qaror imzolandi.

Quyidagi hujjatlar tasdiqlandi:

- Mahalla huquq-tartibot maskani to'g'risidagi nizom;
- IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti to'g'risidagi nizom;
- Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi.

Belgilanadigan tartibga muvofiq:

- tuman (shahar) hokimliklari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralari ko'radi;
- xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari har yarim yilda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektorining hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash ahvoli bo'yicha hisobotini eshitadi va zarur choralarni belgilaydi.

Quyidagilar:

- profilaktika inspektorlari tomonidan har bir oila va xonadondagi muhitni, shuningdek huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, infratuzilma va boshqa muammolarni o'rganish hamda bartaraf etish bo'yicha «Xavfsiz xonadon» va «Xavfsiz hovli» tizimi yo'lga qo'yiladi;
- profilaktika inspektorlarining sud majlislarida «masofaviy» tarzda qatnashish amaliyoti joriy etiladi;
- Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona «poytaxt mintaqasi» tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshiriladi;
- Toshkent shahridagi patrul-post xizmati batalonlari Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining bevosita bo'ysunuvidan chiqarilib, to'g'ridan-to'g'ri tuman ichki ishlar organlari tarkibiga o'tkaziladi va ularning kunlik xizmati mahallalar kesimida yo'lga qo'yiladi;
- jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar IIBB zimmasiga, umumiy boshqaruvi ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatiladi;
- 1.07.2021 yildan boshlab shaxslarni profilaktik hisobga olishning elektron tizimi joriy etiladi.

1.09.2021 yilga qadar profilaktika inspektorlari vakolatiga kiruvchi ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yurituvchi to'liq elektron shaklga o'tkaziladi.

Quyidagilar tashkil etiladi:

1) yagona «poytaxt mintaqasi» tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh

boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash.

2) Toshkent shahar IIBB huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etiladi, uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoring qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, FVV va Toshkent shahar hokimligining tegishli kuch va vositalarini boshqarish;
- jinoyat, hodisalar va favqulodda holatlar haqidagi xabarlariga tezkorlik bilan munosabat bildirish, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirish.

Tuman va shahar ichki ishlar organlari tarkibida 2 000 ta shtat birliklaridan iborat voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimlari joriy etiladi. Ularning bevosita xizmat o'tash joyi etib umumiy o'rta ta'lim muassasalari belgilanadi.

Inspektor-psixologlar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- har bir o'quvchi kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash;
- voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murossasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish;
- muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash.

Hujjat Prezidentning 26.03.2021 yildagi «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq qabul qilingan.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostonda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining birinchi maslahatlashuv uchrashuvida so'zlagan nutqida quyidagi asosiy vazifalarni hal etish hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab olishni taklif etdi:

1. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash sohasida samarali mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish uchun yangi zaxira va amaliy mexanizmlarni izlash;
2. Savdo-iqtisodiy, innovatsiya, investitsiya, transport-kommunikatsiya, bank-moliya, suv-energetika va madaniy-gumanitar sohalaridagi sheriklik bo'yicha aniq dasturlar – “yo'l xaritalari”ni ishlab chiqish;

3. Eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha keng fikr almashish, ular bo'yicha umumiy pozitsiyani kelishib olish hamda uni keyin BMT, MDH, ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ilgari surish.

"O'tgan yil noyabr oyida Samarqandda BMT shafeligida o'tgan xalqaro konferensiya shuni ko'rsatdiki, tizimli muloqot, barcha tomonlarning manfaatlarini inobatga olish va oqilona murosa asosida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ushbu konferensiya yakunida biz birgalikda BMT Bosh Assambleyasiga maxsus rezolyutsiya qabul qilish bo'yicha murojaat qildik. Ana shu hujjatning qabul qilinishi Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash borasida birgalikdagi sa'y-harakatlarimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishish imkonini beradi", - deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Shu o'rinda davlat rahbari O'zbekiston mintaqa davlatlari bilan ochiq, o'zaro manfaatli va yaqin hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashga tayyor ekanini yana bir bor qayd etdi. Bu mamlakat tashqi siyosatidagi eng asosiy ustuvor yo'nalish ekani ta'kidlandi.

Umuman olganda, tashqi siyosat davlat va jamiyatning muvaffaqiyatli ichki rivojlanishi, islohotlarni amalga oshirish, aholi turmush farovonligining oshishini ta'minlash, hayot sifatini ko'tarish uchun qulay tashqi sharoitni yaratish hisoblanadi. Shundan kelib chiqib O'zbekiston atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish eng asosiy vazifalardan biridir. Aynan O'zbekiston joylashgan mintaqadagi xavfsizlik barqaror rivojlanishning eng asosiy shartidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Markaziy Osiyo davlatlari – bevosita qo'shnilarimiz bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlari

Dastlab Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 22-23 mart kunlari davlat tashrifi bilan Qozog'istonda bo'lgandi. Muzokaralar yakunida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo 13 hujjat imzolanadi. O'tgan davr mobaynida Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hamda Qozog'istonning Turkiston viloyati chegaralari tutashgan uchastkalarda davlatlararo chegarani demarkatsiyalash bo'yicha bir nechta muzokaralar o'tkazildi.

O'zbekiston-Qirg'iziston munosabatlari

O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlarida so'nggi 10 yil davomida ilk bor chegara masalarida ijobiy natijalarga erishildi. Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov mamlakat yetakchisi sifatida ish boshlagach, uchinchi davlat tashrifini

O'zbekistonga amalga oshirdi. Bungacha Japarov Qozog'iston va Rossiyaga borgandi. Tashrif doirasida ko'p qirrali O'zbekiston—Qirg'iziston sherikligining deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab olgan 22ta hujjat imzolandi. Ikki davlat o'rtasida eng nozik nuqtalardan biri bo'lgan chegaradagi muammolar yaqin kelajakda hal qilinishi ta'kidlandi.

Chegara muammolari

SSSR qulaganiga 30 yildan oshgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasida chegaraviy muammolar to'la hal etilgani yo'q. So'nggi yillarda davlat chegaralarini huquqiy rasmiylashtirish hamda chegaradagi bahsli hududlar muammosini uzil-kesil hal etish borasida bir qancha amaliy harakatlar o'tkazildi. Xususan, Samarqand shahrida 2017 yil 10-11 noyabr kunlari BMT shafe'ligida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusidagi xalqaro konferensiyada O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasidagi bahsli nuqtalar bo'yicha kelishuvga erishildi.

Markaziy Osiyo va O'zbekiston o'rtasidagi xalqaro munosabatlarda erishilgan yutuqlar

O'tgan uch yil ichida, O'zbekiston prezidentining tashabbusi bilan mintaqaning barcha mamlakatlari bilan yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Mazkur tashriflar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun o'zaro manfaatli bo'lgan global masalalar bo'yicha qaror qabul qilindi: xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, madaniyat va ekologiya sohalarida.

Natijada tarixan qisqa vaqt ichida O'zbekiston va mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarning yaxshi tomonga burilishiga sabab bo'lgan ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Ya'ni, bugun sizga ishonch bilan Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan yaxshi munosabatlarga ega ekanligimizni ta'kidlay olaman. 2016-yilga qadar bo'lgan muammolar bugun butunlay bartaraf qilindi. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida 25 yil ichida shakllangan muzlar shu uch yil ichida butunlay eridi deyishimiz mumkin.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv, puxta o'ylangan va pragmatik siyosati natijasida suvdan foydalanish, O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, davlat chegaralarini kesib o'tish kabi murakkab va chalkash muammolarga yechim topildi.

Ochiqchasini aytsam, o'zaro yordam va koronavirus tarqalishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha ko'rilgan qo'shma chora-tadbirlar O'zbekistonning

Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq va konstruktiv siyosati to'g'ri ekanligini isbotladi.

Pandemiya xavfiga qaramay, bugungi kunda mintaqa mamlakatlari o'rtasida faol hamkorlik mavjud. Davlat rahbarlari doimiy ravishda telefon orqali muloqot qilishadi. Hisoblab chiqishimcha, so'nggi 4 oy ichida O'zbekiston prezidenti mintaqa davlat rahbarlari bilan 16 marta suhbatlashdi.

Shunday maqol bor: "Do'st boshingga kulfat tushganda bilinadi". Koronavirus infeksiyasi tarqalishining dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatlar bir-biriga ijtimoiy yordam ko'rsatishni boshladilar. O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga yordam yubordi. Bunga javoban Qirg'iziston va Tojikiston singari qo'shnilarimiz Sardoba suv omborini tiklash uchun insonparvarlik yordamini ko'rsatdilar.

Yaratilgan do'stlik, qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik muhiti pandemiya sharoitida Markaziy Osiyo mamlakatlari va umuman ular o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashda xalq diplomatiyasining o'rni juda muhimdir. Bu yerda eng muhimi, bizning madaniyatimiz, u bir-birini to'ldiradi. Urf-odatlarimiz va udumlarimiz bir, dinimiz bir, til to'sig'i yo'q. Tojikiston bilan ikki tilda gaplashsak ham, lekin madaniyatimiz, tariximiz, urf-odatlarimiz juda yaqin.

2018-yil Qozog'istonda "O'zbekiston yili" deb e'lon qilindi. Uning doirasida 80 dan ortiq madaniy, sport tadbirlari, kino kunlari, turli festivallar o'tkazdik. 2019 yil esa O'zbekistonda "Qozog'iston yili" bo'ldi. Xuddi shunday ko'plab madaniy tadbirlar tashkillashtirildi. Mana shu xalq diplomatiyasi. So'nggi uch yil ichida biz Tojikiston bilan ko'plab madaniy tadbirlar o'tkazdik. Qirg'iziston bilan ham xuddi shunday.

Ayniqsa, chegaralar ochilgandan keyin chegara hududlarida istiqomat qiluvchi aholi uchun qulay sharoit yaratildi. Tojikiston va O'zbekiston chegarasini kuniga 20 mingdan oshiq, Qirg'iziston va O'zbekiston chegarasini 30 mingdan oshiq odam kesib o'tishi ham xalq diplomatiyasi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <http://uzembassy.kz/uz/article/markaziy-osiyo--ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishi>
2. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishlari>

3. <https://hozir.org/ozbekiston-va-mdh-davlatlari-ozbekistonning-markaziy-osiyo-res.html>
4. <https://kun.uz/uz/news/2018/09/18/uzbekiston-va-kozogiston-markazij-osie-sengeni-masalasi-bujica-ecim-topisga-akin>
5. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)